

РЕЗЮМЕ

Маколада бошланғич синф ўқувчиларининг жисмоний ва физиологик хусусиятлари илмий жиҳатдан тадқиқ этилган. Бошланғич синф ўқувчиларининг жисмоний ва физиологик жиҳатдан ривожланганлик даражасини аниқлаш орқали жисмоний оқламарни белгилаш муҳимлиги қайд этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье научно исследуются физико-физиологические особенности учащихся младших классов. Отмечена важность определения физических нагрузок путем определения уровня физического и физиологического развития младших школьников.

SUMMARY

The article scientifically examines the physical and physiological characteristics of primary school students. The importance of determining physical loads by determining the level of physical and physiological development of primary school students was noted.

Tálim - tárbiya teóriyası hám metodikası

**PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI VA DASTUR DOIRASIDA
O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI BAHOLASH**

A.S.Abdusamotov – o'qituvchi

X.Sh.Ibragimova – talaba

Termiz davlat universiteti

Tayanch so'zlar: PISA, kreativ fikrlash, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, konvergent fikrlash, divergent fikrlash, kreativ ifoda, og'zaki va og'zaki bo'lmagan ifoda.

Ключевые слова: PISA, креативное мышление, образование, умение, квалификация, компетенция, конвергентное мышление, дивергентное мышление, креативное выражение, вербальное и невербальное выражение.

Key words: PISA, creative thinking, education, skill, experience, competence, convergent thinking, divergent thinking, creative expression, verbal and non-verbal expression.

Globalashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson va uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi [1].

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llangan. PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi. PISA tadqiqotiga qatnashayotgan davlatlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Misol uchun, 2000-yil 32 ta, 2003-yil 43 ta, 2006-yil 57 ta, 2009-yil 74 ta, 2012-yil 65 ta, 2015-yil 72 ta, 2018-yil 78 ta davlatlar ishtirok etgan.

PISA xalqaro tadqiqotlarining oldiga qo'ygan asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lim siyosati va pedagogikada yaqqol natija beradigan kreativ fikrlash ko'nikmasiga oid xalqaro miqyosdagi qiyosiy ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Shuning uchun, nazarda tutilayotgan kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish orqali shakllantirishi, ta'lim jarayonida kreativ fikrlash ko'nikmasining turli imkoniyatlari aniq ko'rsatib berishi va baholovchi topshiriqlarda o'quvchilarning o'zlashtirishlari bilan bog'langan bo'lishi, baholashda qamrab olingan mazmun sohalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar bilan chambarchas bog'langan bo'lishi, test top-

shiriqlari o'quvchilar tomonidan, ham sinfda ham sinfdan tashqarida bajariladigan mashg'ulotlarga yaqin bo'lishi bilan birga ijodiy yutuq va muvaffaqiyatni ta'minlaydigan darajada ishonchli bo'lishi kerak [2].

Xalqaro PISA dasturida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash PISA 2022 da ilk marotaba o'tkazilayotgan bo'lib, PISA tadqiqotida kreativ fikrlash termini o'quvchilarning tasavvurini ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishni rag'batlantirish, original va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirishda faol ishtirok etish kompetensiyasi sifatida ta'riflangan. Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga jumladan, ular tabiiy, falsafa, san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Shunday ekan, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy keladigan fikrlardan keskin farq qiladi. Bu bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar innovatsion g'oyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik deb qarab, yuzaga kelayotgan murakkabliklarni yengishda innovatsion g'oyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratmoqda. Bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya o'zi nima degan savolga javob beraylik.

Bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish. Ko'nikma- o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati. Malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilishdir.

Kompetensiya- mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi [4].

Kreativ fikrlash jamiyat miqyosidagi ta'sir doirasiga ega bo'lgan o'ziga xos soha hisoblanishi bilan birgalikda, biror kim ishonishi mumkin bo'lganidanda universal va umumlashgan hodisadir. Ya'ni, keng yoki nisbatan tor ma'noda olib qaranganda, har bir inson kreativ fikrlash imkoniyatiga egadir. Bundan tashqari, psixologlar va o'qituvchilar orasida keng tarqalgan umumiy tushunchaga ko'ra, ijodkorlik bilan chambarchas bog'langan va fikrlash jarayonlarida ishtirok etish deb tushuniladigan kreativ fikrlash boshqa alohida bir qator fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradi. Jumladan, metakognitiv qobiliyatlarni o'zaro va shaxsiy muammoni yechish ko'nikmalarini, tenglik tushunchasini rivojlantirishini, fanlarning o'zlashtirishini, kelajakda kasbiy muvaffaqiyatlarga er-

ishishni va jamiyat bilan uyg'unlashuvini yaxshilaydi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga ko'maklashadi.

PISA tadqiqotlarida butun dunyodagi 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli bo'lgan kreativ fikrlash ta'rifi mavjud. PISA 2022 tadqiqotlarida kreativ fikrlash termini yosh avlodning yaratuvchanlik kompetensiyasi bilan ishlash, bilim olishni rag'batlantiruvchi hamda haqiqiy va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalar shakillantirish, bilimda yoki ta'sirli tasavvur ifodalashda yuksalish sifatida izohlangan [3].

Kreativ fikrlashga berilgan bunday izoh kreativ fikrlash yo'nalishidagi strategik maslahatchi ekspertlar guruhi tomonidan berilgan ta'rifga mos tushadi. Bu ta'limning barcha turlarida va barcha fan sohalarida tahsil oluvchi o'quvchilarning g'oyalar yaratish jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g'oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o'z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o'zlari kutgan natijaga erishmagunga qadar g'oyalarni yaratishda davom etishini nazarda tutadi. Shuningdek, bu fanlararo mutaxassislar rahbarligi va ijodga oid adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali ma'lum qilingan. Kreativ natijaga erishish kreativ fikrlay olish qobiliyatini taqozo etadi, shu bilan bir qatorda u iqtidor, bilim sohasi yoki badiiy qobiliyat kabi bundan kengroq va ixtisoslashgan xususiyatlar va ko'nikmalarni talab etadi. Masalan, texnologik yangiliklar yoki san'at durdonalari bilan bog'langan "Katta K" kreativlik, muayyan iqtidor, yuqori darajadagi mutaxassislik, muayyan sohani chuqur egallanganlik hamda jamiyat e'tiborida bo'lish bilan uyg'unlashuvi anglatadi. Shunga qaramasdan, "Kichik K" yoki kundalik kreativlik (masalan, oilaviy rasmlarni ma'lum tartibda tuzib chiqish, qolgan mahsulotlardan mazali taom tayyorlash yoki ishdagi biror muammoga kreativlik bilan yechim topish) kreativ fikrlaydigan deyarli barcha odamlarning qo'lidan kelishi mumkin.

Umuman olganda, adabiyotlarda keltirishicha, bunday "Kichik K" mashq qilish yoki bilim olish bilan orttirilishi mumkin. PISA 2022 xalqaro dasturida kreativ fikrlashni baholash biror ishini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan tug'ma qobiliyatga ega bo'lishning ahamiyati kamaytiradigan "Kichik" kreativlikka oid berilgan topshiriqlarga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning kreativ fikrlashiga imkon beradigan o'zgaruvchan iqtidorlariga katta e'tibor qaratadi [3]. Bunday turdagi kreativ fikrlash nafaqat san'at yoki ijodiy bayon kabi o'quvchilarning ichki dunyolarini ifoda qilishlarini talab etadigan ilmiy kontekstlarda, balki umumlashuvi keng miqyosdagi ijtimoiy muammolar va murakkabliklarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ijodkorlikning o'zaro bog'liqlik yondashuvlari ijodiy ish bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish uchun turli xil ichki manbalarning ahamiyatini, shuningdek, ijodiy ish olib boradigan muhitning muhimligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuvlar PISA tadqiqotlari doirasida kreativ fikrlashni baholashda muhim sxema bo'lib xizmat qiladi. Shunday bo'lsada, o'quvchilarning kreativ fikrlashlari haqida yanada yaxshiroq tushunchaga ega bo'lish uchun, ushbu yondashuvlarni o'quvchilarga kundalik maktab hayotiga tegishli bo'lgan tarzda kontekstualizatsiya qilish zarur. Bir qancha mualliflar insonning kreativ fikrlashi uchun kerakli bo'lgan kognitiv ko'nikmalarni aniqlagan.

Guilfordning konvergent fikrlash va divergent fikrlash borasidagi tushunchasi bu sohada olib borilgan tadqiqotlarga ta'sir o'tkazdi. Konvergent fikrlash odatda javob berishda an'anaviy va mantiqiy izlash, eslab qolish va to'plangan ma'lumotlarga nisbatan qaror qabul qilish strategiyasi qobiliyati sifatida izohlanadi. Buning aksi o'laroq, divergent fikrlash yangi yondashuvlardan foyda-

lanish, mavjud ma'lumotlardan kutilmagan kombinatsiya hosil qilish, muloqot, g'oyalarni ilgari surish va ifoda qilish mazmunda hamda raven tarzda amalga oshirish kabi qobiliyatlardan foydalanib, yangicha g'oyalarni ishlab chiqish sifatida izohlanadi. Shuningdek, bu turli yechimlarni qidirish, eng og'ir vaziyatlarda qandaydir kutilmagan yangilikka qo'l urish qobiliyatlari, muammolarga turli nuqtai nazardan va topshiriqlarga turlicha yondashish hamda tayyor an'anaviy usullardan ko'ra yangicha usullarni o'ylab topish qobiliyati sifatida ham izohlangan. Aslida, divergent fikrlash muammolarga avval taklif etilmagan, yangi, g'ayri oddiy yoki hayratlanarli javob topishdir [4].

Hozirgi kun tadqiqotlari kreativ fikrlashdan tashqari qobiliyatga nisbatan sof individual tushuncha deb qaramoqda. Shunga ko'ra, kreativ fikrlashga nisbatan yangi bilim va ko'nikmani hosil qilishda jamoaviy say-harakat, deb qaraladi. Kreativ fikrlashni bu tarzda tushunish shundan darak beradiki, ijodiy ish inson va uni o'rab turgan atrof-muhit hamda o'sha muhitdagi boshqa insonlar orasidagi o'zaro bog'liqlik natijasidir. Kreativ fikrlash va bandlik "bajarish" va "boshdan kechirish"ning doimiy sikli (bunda harakatlar muhitga qaratilgan) (muhit ta'siriga tushish), deb izohlanadi. O'quvchilarning kreativligi ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarida, ayniqsa ijodiy fikrlash jarayonining aksariyati "ko'rinmas" vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi. O'quvchining ijodiy barkamolligi uning kreativ fikrlash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshgan yoki oshmaganini ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda kreativ ifoda ham shakillantiriladi [6].

Kreativ ifoda insonlar o'zlarining ichki dunyosi va tasavvurlarini boshqalar bilan baham ko'radigan ham og'zaki ham og'zaki bo'lmagan yondashuvdan iborat. Og'zaki ifoda tildan foydalanishni, shu jumladan yozma va og'zaki muloqotni anglatadi. Og'zaki bo'lmagan tarzda ifodalash nafaqat chizmachilik, rasm chizish, model yaratish va musiqiy ifoda qilish bilan, balki raqs va drama kabi harakat hamda ijroni ifoda etishni ham o'z ichiga oladi. Nihoyat, kreativ yondashuvning ma'lum shakllari madaniy jihatdan bir-biridan farq qilsa, ta'lim sohasida va dunyo bo'ylab o'qitiladigan fanlarda ham shunday farqlar ko'zga tashlansa, mazkur faoliyat sohalar bo'yicha o'qituvchilarning o'zlashtirishlarida ham qaysidir ma'nodagi tafovutlar seziladi. O'quvchilarni birdan ortiq faoliyat sohasida ishlashga undash orqali kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishdagi kamchilik va kuchli jihatlarni mamlakatlar miqyosida aniqlash imkoni tug'iladi. To'plangan ma'lumotlar kreativ fikrlash ko'nikmasi maktablarda turli sohalar bo'yicha qanday o'qitilishi kerakligi to'g'risidagi muhit xulosalar bilan birga o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini ifodalash usullari va muayyan muammoga mustaqil yechim yo'naltirilishidagi tafovutlarni aniqlaydi [7].

Umuman olganda, tadqiqotlar ichki vazifa motivatsiyasining ijodiy rolini va tashqi vazifa motivatsiyasining kreativ ishlashga salbiy ta'sirini ta'kidlaydi. Shunday bo'lsada, bu borada bildirilgan ko'pgina fikr-mulohazalar tashqi rag'batlantiruvchi kuchlar (masalan, biror vazifani bajarishi uchun qo'yiladigan so'nggi muddat) yoki mukofotlar (misol uchun, rag'batlar va e'tibor) insonlarni kreativ harakat qilishlari uchun katta imkoniyat yaratishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, PISA tadqiqotida O'zbekistonning ham qatnashishi yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, PISA 2022 dasturida kreativ fikrlashning nazariy asoslari, uning ta'limdagi ahamiyati, kreativ fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan yondashuvlar, o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Adabiyotlar

1. Ismoilov A.A., Daminov X.J., Karimov N.A., Ahmedov X.P., Tog'ayeva G.O., Kosimova Z.A. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 1-son. -Toshkent: 2020.

2. Ismoilov A.A, Daminov X.J, Kosimova, Z.A. G.A.Pirimov. G.A. Kreativ fikrlashni baholash. -Toshkent: 2021.
3. Aleksandrovna A.N. PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish. - Toshkent-Moskva: 2020.
4. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturidan. Boshlang'ich ta'lim. -Toshkent: "Sharq", 2000.
5. Amabile T. (2012), "Componential theory of creativity", №12-096, Harvard Business School (accessed on 28 March 2018).
6. Amabile T. (1997), "Motivating creativity in organizations: on doing what you love and loving what you do", California Management Review, Vol. 40/1, pp. 39-58.
7. Abdusamatov A.S. The role of didactic and methodological innovations in the implementation of primary mathematics education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarij.com> Impact Factor: 2020.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada PISA Xalqaro baholash dasturining kelib chiqish tarixi, dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, PISA dasturi doirasida qilinayotgan ishlar, erishilayotgan natijalar, hamda PISA tadqiqotida rivojlantirilayotgan kreativ fikrlash haqida keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассказывается об истории возникновения Международной программы оценки PISA, роль в мировом сообществе, что дается в рамках программы PISA, достигнутые результаты, в нем также обсуждается вторичное мышление развивающееся в исследованиях PISA.

SUMMARY

This article deals with the origins of the origins of the PISA International Assessment Program, its role in the world community, works done through the PISA program, achieved results, and it also discusses about developing the creative thinking evolving in PISA research.

ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР

А.Д.Аллияров – ўқитувчи

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Таянч сўзлар: кадрият, шахс, ёндашув, оила, миллий ва умуминсоний кадрият, шакллантириш, таълим.

Ключевые слова: ценность, личность, подход, семья, национальные и общечеловеческие ценности, формирование, воспитание.

Key words: value, personality, approach, family, national and universal values, formation, education.

Ўзбекистон умуминсоний ва миллий кадриятларга чуқур ҳурмат, маданиятда умуминсоний тамойилларнинг устиворлиги йўлини танлаганини бутун дунё жамоатчилигига билдирди. Мустақил Ўзбекистон қудратининг асосий манбаи халқимизнинг умуминсоний кадриятларига садоқатидир. У адолат, тенглик, яхши қўшничилик ҳамда инсонпарварлик каби нозик ғояларни асрлар бўйи асраб авайлаб, шу кунларга қадар олиб келди. Ўзбекистон янгиланишининг олий мақсади шу анъаналарни тиклаш, уларга янги мазмун бахш этиш, заминимизда тиничлик осойишталик, тўкин сочинлик, маданият, виждон эркинлиги ҳамда ҳар бир инсоннинг маънавий юксалиши учун зарур шарт-шароитлар яратишдан иборат.

Бугунги кунда таълим стандартларига асосан бакалаврият талабаларининг билимини, тафаккурини, илмий дунёқарашини оширишда ўқув фанлари бўйича бериладиган билимларни чуқур ва мустаҳкам эгаллаб олишлари ва улар дунёқарашининг шаклланишига даражасида тизимли билимларга эга бўлиши, давлат сиёсатининг долзарб масалаларини, ижтимоий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қила олиши, табиат ва жамиятда кечаётган жараён ва ҳодисалар ҳақида яхлит тасаввурга эга эканлиги, умумқасбий билимларни эгаллашда ҳамда улардан замонавий илмий асосларда ҳаётда ва касбий фаолиятида фойдалана билиши, илмий тасаввур ва эътиқодга эга бўлиши, ахборот йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш усуллари эгаллаб олиши, ўз касбий фаолиятида мустақил қарорлар қабул қила олиши, янги билимларни мустақил ҳолда эгаллаб олиши, мустақил фикр юритиши, ўз фаолиятини ташкил эта олиши, Ватан тарихини билиши, маънавий, миллий ва умуминсоний кадриятлар юзасидан ўз фикрини баён қила олиши, таълимда ахборот технологияларини эгаллаб олиши каби талаблар қўйилган.

Ҳақиқатан ҳам аجدодларимиз қолдирган бой маънавий мерос миллий кадриятларимизни замонавий илм-фан ютуқлари билан бойитиб, ёш авлоднинг тафаккури, дунёқарашини миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида шакллантириш мустақилликни мустаҳкамлашнинг асосий манбаидир. Лекин мустақиллик даврига «миллий кадрият», «кадрият» тушунчалари ҳатто луғатларда ҳам ўз ифодасини топмаган. Гарчи қўлланилса ҳам «ценность» сўзининг

тўртта маъноси алоҳида мақола тарзида берилиб, лекин «кадрият» тушунчасининг маъно-моҳияти талаб даражасида ифодаланмаган. Фақат истиклол туфайли жуда кўп миллий тушунчалар билан бирга «Кадриятлар» тушунчаси ҳам ўзининг асл маъносига эга бўлди.

Одатда, кадрият деганда, моддий ва маънавий эҳтиёжларнинг уйғунлиги назарда тутилади. Моддий кадрият (табиий бойлик, меҳнат маҳсулотларининг истеъмол нархи, замонашларимизнинг ўтмиш маданий мероси сифатида ўтган бойликлар, диний ва бошқа маросимларда қўлланиладиган турли ашёлар ва ҳақозо) ҳамда маънавий кадрият (жамият қонун-қоидалари, яхшилик ва ёмонлик, адолат, гўзаллик ва ҳўниклик, тарих ҳамда инсон моҳияти, ғоялар, ҳаракат шакли ва тамойиллар каби шартли тасаввурлардан юзага келган эркинлик ва чеклашлар) бир-биридан фарқ қилади. Мавжуд кадриятларни бир тизим сифатида «аксиология» фани ўрганади. Бу фан моддий, маънавий, ишлаб чиқариш, истеъмол, ижтимоий – сиёсий, илмий, ахлоқий, эстетик, диний кадриятларни бир тизим сифатида бир-бири билан ўзвий боғлиқ ҳолда ўрганишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.

Ҳозирги мустақиллик шароитида кадриятларга умуминсоний тамойиллар асосида ёндашилмоқда. Кадриятларга бундай ёндашиш уларнинг ижтимоий ва маънавий жиҳатдан янгиланиши, жамият аъзолари тафаккурининг ўзгариши, ёшлар тарбиясидаги ўрнига эътибор давлат аҳамиятига эга устувор соҳа сифатида қаралган. Шунинг учун ҳам кадриятларга эътибор ва улардан таълим-тарбияда фойдаланиш заруриятга айланди. Ҳозирги вақтда «кадрият» тушунчаси ўзининг асл маъносига эга бўлди. «Кадрият» тушунчаси ўта сермазмун ва кўпқиррали тушунча. Шунга кўра адабиётларда унга турлича баҳо берилади: файласуф олимлар Ж.Туленов, З.Ғофуров кабилар «Кадрият деганда инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган, миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва мақсадларига хизмат қиладиган ва шу туфайли улар томонидан баҳоланиб қадрланадиган табиат ва жамият неъматлари, ҳодисалари мажмуини тушунмоғимиз лозим», – деб таъриф берадилар [1].

Бир қатор оимлар сабабли кадриятлар масаласи бугунги куннинг долзарб масалаларидан бирига айланди. Биринчидан, жамият тараққиёти ўхшаши йўқ фавқуллодда ҳолларни юзага келтиради. Бу эса ўз навбатида кадрият йўналишларини қайта қўриб чиқиш